

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi 101- guruh talabasi

Shamuratova Maftunaning

“Maktabgacha ta’limda mutaxxassislikka kirish” FANIDAN

“Maktabgacha ta’lim muassasasining maktab bilan hamkorligi”

mavzusidagi

KURS ISHI

Himoya qilishga ruxsat berilgan

Ilmiy rahbar: _____ X.M. Atajonova

« _____ » _____ 2015- y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-6
I BOB. Maktabgacha ta’lim muassasai bolalarni maktabga tayyorlovchi asosiy muassasa.	7-8
1.1 Maktabgacha ta’lim muassasalarini tuzish va unga rahbarlik qilish.	7-11
1.2 Maktabgacha ta’lim muassasalarining vazifalari.....	12-14
II BOB. Maktabgacha ta’lim muassasasining maktab bilan hamkorligining pedagogik asoslari.	15-17
2.1 Ta’lim tizimida hamkorlikning ahamiyati.....	15-17
2.2 Maktabgacha ta’lim muassasasi va maktab hamkorligi usullari va ish shakllari.	18-20
XULOSA.....	21-22
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	23

MAVZU: Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligi.

REJA:

KIRISH.

I BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy muassasa.

1.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarini tuzish va unga rahbarlik qilish.

1.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalari.

II BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligining pedagogik asoslari.

2.1 Ta'lim tizimida hamkorlikning ahamiyati.

2.2 Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi usullari va ish shakllari.

XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda mustaqillik yo'lidagi ilk qadamlardan oq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalgam oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlashtiruvchi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek "O'zbekiston respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida Nizom", "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

Isloh etish jarayonida bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari qamrab olinmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikirlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

"O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta'lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim

muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog'chalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki bog'chadagi ta'lim va tarbiya sharoitlaridan maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni taminlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Tadqiqot jarayonida muammoning nazariy jihatdan ishlanganlik darajasini o'rganish yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishida bolalarni milliy tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari bir guruh pedagog va psixolog olimlarimiz tomonidan yetarli darajada tadqiq etilganligini ko'rsatdi.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi ulkan yuksalishlar XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Bu yillarga kelib, maktabgacha tarbiya sohasida malakali oliy ma'lumotga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga kuchli ehtiyoj sezildi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan qarorga binoan 1935-yilda Nizomiy nomli TDPI tashkil etildi va xuddi shu yildan boshlab, «Maktabgacha pedagogika» kafedrasini o'z faoliyatini boshlaydi. 70-yillik tarixiy davr mobaynida maktabgacha pedagogika kafedrasini katta ijodiy yo'lni bosib o'tdi.

O'zbekistonda maktabgacha tarbiya bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash borasida tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik, o'quv-tarbiyaviy,

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda maktabgacha pedagogika kafedrasining namunalari ishlarni tashkil etdi.

1954-yilgacha «Maktabgacha pedagogika» kafedrasining tashkil etilishi quyidagi bosqichlarda rivojlandi:

1928-29 yillarda Belinskiy nomidagi kechki pedagogika Instituti «Maktabgacha tarbiya bo'limi»ni 28 ta talaba bitirib chiqdi. Bular: 15 ta o'zbek va 13 rus guruhi talabalaridan iborat edi.

«Maktabgacha pedagogika» sohasi fani o'qituvchilari yetishmasligi sababli, bitiruvchilar bu fanni tinglash maqsadida Moskva shahriga yuboriladi.

Toshkent shahriga bu mutaxassislik yetakchi pedagog-olimlardan Flerina Ye.A., Chuvashov, Krasnogorskaya, D.V.Mendjeritskaya, A.M.Leushina, Rudnevlar taklif qilinadi.

Farg'ona shahriga esa Bass, Rudnik, Kvilg'man F.T lar yuboriladi.

1954-yilgacha 493 ta mutaxassis tayyorlandi. O'zbekistonning bir qancha viloyatlarida ham maktabgacha tarbiya bo'limi va fakultetlari jadallik bilan tashkil etildi.

1933-yilda Farg'ona pedagogika Institutida maktabgacha ta'lim mutaxassisligi bo'yicha 21 ta, 1936-yilda 18 ta kadrlar tayyorlandi, 1937-yilda esa o'qituvchi kadrlar yetishmasligi tufayli tugatildi.

Qo'qon kechki pedagogika Institutida ham 1928-yilda maktabgacha tarbiya bo'yicha kadrlar tayyorlandi.

SHu yillardan boshlab, kafedra Z.A.Yagudina, L.Kai'ova, G.G.Korneeva, K.Saidaliev, S.A.Ishniyozova, A.G.Nazarova, E.M.Rozbaeva kabi o'qituvchilar bilan to'ldirildi.

Kurs ishining maqsadi. Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligini o'rganish.

Kurs ishining obyekti. Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligi va ish shakli.

Kurs ishining predmeti. Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorlik jarayoni.

Kurs ishining tuzilishi. Kurs ishi 2 bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Maktabgacha ta'lim muassasai bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy muassasa

1.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarini tuzish va unga rahbarlik qilish

Avvalam bor maktabgacha ta'lim haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, **“Maktabgacha ta'lim”** - Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bundan ko'zlangan maqsad, bolaning bilimga qiziqishini ta'minlashdan, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdan, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishni o'stirishdan, salomatligini mustaxkamlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim muassasalari vazirliklar, idoralar, xalq deputatlari kengashi ko'rsatmasiga binoan ularga bo'ysungan korxonalar muassasalar, xalq deputatlari tomonidan xalq xo'jaligi rejasida belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida tuziladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy tarbiya qiladigan Davlat korxonasi ekanligi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, «Maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi Nizomga amal qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish uchun mudira tayinlanadi. Mudira – maktabgacha ta'lim muassasasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar

muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, printsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 4-bo'limi «Ta'lim tizimi bosh'arish» bo'limida uning 25-moddasida shunday deyiladi: Ta'lim soxasida yagona davlat sistemasini amalga oshirish Davlat boshqaruv organlariga rahbarlik qilish ta'limni rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish xar bir raxbarning bosh vazifalaridan biridir. Maktabgacha tarbiya to'g'risidagi Nizomda ham Maktabgacha tarbiya muassasalarini boshqarish va kadrlar tayyorlash ishlarini amalga oshirish, rahbarning huquq doirasi kafolatlari belgilab berilgan.

Hozirda bolalarni maktabgacha ta'limga jalb etish 20% ni tashkil etmoqda. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning II moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlangan. «Maktabgacha ta'lim» bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta'lim mussasasi mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga moyllik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir. Maktabgacha ta'lim mussasasi ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifati bolalar va ota-onalar huquqiga jamiyat va Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir va bog'liq masalalarni birga hal qiladi.

II. Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

2. Quyidagilar:

davlat boshqaruvi organlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari;

davlat korxonalari;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislari bo'lishi mumkin.

3. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z ishining o'ziga xosligiga muvofiq quyidagi tiplarga bo'linadi:

umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasasi;

ixtisoslashtirilgan (jismoniy va psixik rivojlanishida har xil nuqsonlar mavjud bo'lgan bolalar uchun);

sanatoriy tipdagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun).

4. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z nizomiga, bank muassasalarida hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, yuridik manzili ko'rsatilgan shtam'ga ega bo'ladi.

5. Maktabgacha ta'lim muassasasini akkreditatsiya qilish davlat vakolatli organi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

III. Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish

6. Maktabgacha ta'lim muassasasi belgilangan davlat normativlariga va maktabgacha ta'lim muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

7. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Bunday dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

8. Maktabgacha ta'lim muassasasining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo'lishi maktabgacha ta'lim muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtlarda hamda kechayu kunduz faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi.

9. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarni o`qitish va tarbiyalash davlat tilida va «Davlat tili haqida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

10. Maktabgacha ta`lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish maktabgacha ta`lim muassasasiga yuklanadi hamda O`zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Bolalarga tibbiy xizmat ko`rsatish ham shtatdagi tibbiyot xodimlari, ham maktabgacha ta`lim muassasalariga birlashtirilgan sog`liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan ta`minlanadi, ular maktabgacha ta`lim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog`lig`i va jismoniy rivojlanishi, davolash-`rofilaktika tadbirlari o`tkazilishi, sanitariya-gigiena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar.

Tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish mahalliy sog`liqni saqlash organlariga yuklanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasi tibbiyot xodimiga xona beradi va uning ishlashi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi.

Maktabgacha ta`lim muassasasining shtatdagi xodimlari sog`liqni saqlash organlarida be`pul tibbiy ko`rikdan o`tadilar, buning uchun sarflanadigan xarajatlar davlat tomonidan ajratiladigan mablag`lar doirasida belgilanadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog`lig`ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan Sog`liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

12. Maktabgacha ta`lim muassasasi nizamda qayd etilgan o`z maqsadlarini va vazifalarini bajarish uchun ota-onalar yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida oilaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda asosiy ta`lim dasturlaridan tashqari qo`shimcha pulli ta`lim xizmatlari ko`rsatishga haqlidir. Pulli ta`lim xizmatlari muassis tomonidan moliyalashtiriladigan asosiy ta`lim faoliyati o`rniga va uning doirasida ko`rsatilishi mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, faoliyat yo'nalishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.
- Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.
- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbir va protseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischi tomonidan belgilandi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

1.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalari

Farzandini maktabga yuborayotgan har bir ota-ona farzandim o'quv jarayoniga tayyor deb hisoblaydi. Chunki, har bir kishi o'z farzandini qobiliyatli va takrorlanmas deb o'ylaydi. Ammo su o'rinda savol tug'iladi. Bola har jihatdan maktabga tayyormi? U yangi sharoitga ko'nika oladimi?

Maktabga tayyorgarlik va maktab hayotiga moslashtirishning muvaffaqiyatli kechishi bu ishni oldinroq boshlab, uni asta sekin bolaning manfaati bilan uyg'unlashtirgan holda sabr bilan amalga oshirishni talab etadi.

Bolaning 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan muddat maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda bola o'zi uchun yangi dunyoni kashf etadi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga

bo'lgan talablar "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Bolalar maktabgacha muassasalari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazoratini, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsad va vazifalari

Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

- Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;
- Bolalarni milliy va umuminsoniy etik va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;
- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash;

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolani har tomonlama rivojlantirish yo'lidagi muhim ta'lim muassasasi hisoblanadi. Shu boisdan bolalarni albatta maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya olishga topshirish ularning rivojlanishi va bevosita maktab ta'limiga tayyorlashning muhim jihati hisoblanadi. Bunda albatta, ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan bola yangi o'quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini o'rnatishga tayyor bo'ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo'ladi.

O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`lim tizimini takomillashtirish, uning uzluksizligini, shuningdek Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari samarali amalga oshirilishini ta`minlash maqsadida ishlab chiqilgan hamda davlat maktabgacha ta`lim muassasalari faoliyatini tartibga soladi.

2. Maktabgacha ta`lim muassasasi o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O`zbekiston Respublikasi `rezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda o`z ustaviga amal qiladi.

3. Maktabgacha ta`lim muassasasi ta`lim-tarbiya va sog`lomlashtirish muassasasi hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog`lig`ini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta`minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o`qishga tayyorlash.

II BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligining pedagogik asoslari

2.3 Ta'lim tizimida hamkorlikning ahamiyati

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Sog'lom bola yili" Davlat dasturiga asosan maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM)ga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashga mo'ljallab chop etilgan besh nomdagi («Nutq o'stirish, o'qish va savodga tayyorgarlik»), «Matematik tasavvurlarni shakllantirish», «She'riy asarlar to'plami», «Nasriy asarlar to'plami», «Sog' tanda — sog'lom aql») qo'llanmalarining joylarga yetkazilishi va ulardan oilalarning foydalanilishini ta'minlash tartibi tasdiqlandi. «Mazkur tartib besh nomdagi rangli, suratli kitoblarni manzilli ro'yxat asosida bosqichma –bosqich joylarga yetkazishni ko'zda tutadi.

Unga ko'ra, jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

Avvalo, Respublika "Ta'lim-taminot" unitar korxonasi qo'llanmalarni nashriyotdan qabul qilib olgach, ularning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi korxonalariga yetib borishini ta'minlaydi.

Kitoblar tashkilotlar orqali taqsimotga asosan umumta'lim maktablari kutubxonasiga yetkaziladi. Ularni tarqatish yuzasidan tuman(shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlarining buyrug'i chiqarilib, mas'ullar tayinlangach, qo'llanmalar ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalariga beriladi. Kitoblarda to'g'ri foydalanish bo'yicha ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalariga yo'l yo'riq ko'rsatish borasida ham muayyan vazifalar belgilanadi.

Jumladan, tuman(shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari metodistlari, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari o'z hududlaridagi 5-6 yoshli farzandlari maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olinmagan oilalarga besh nomdagi qo'llanmalardan foydalanish yuzasidan maslahatlar berishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2014-yil – “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan tuman(shahar)dagi barcha ta'lim muassasalarida sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularda hamkorlik asosidagi ta'lim tarbiyani yanada oshirish, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta'minlash borasidagi ishlarning ko'lamini yanada kengaydi. Jumladan, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, bunda bevosita ta'lim jarayonidagi hamkorlikka alohida e'tibor berish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, bolalar, ayniqsa, qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish bo'yicha aniq chora tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalashda «Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi» konsepsiyasi asosida o'tkazib kelinayotgan «Sog'lom bolani tarbiyalash – bizning umumiy vazifamiz», «Bola tarbiyasida oila va mahallaning roli, ahamiyati va mas'uliyati» kabi mavzulardagi tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashib va kechalar tumandagi barcha ta'lim muassasalarida reja asosida amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlar yoshlarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga puxta zamin yaratadi.

Tarbiyalanayotgan bolalarning nutqini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kelgusida bolajonlarning yuksak iqtidor egasi bo'lib kamolga yetishida muhim o'rin tutadi.

Bugungi davr talabi sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan yordam hamdamadadni kuchaytirish, ta'lim muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu boisdan sog'lom bolani tarbiyalash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar keng ko'lamda o'rganilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Shu jumladan ta'lim tizimidagi hamkorlik ishlari yoshlarni bilimli ilg'or, qiziquvchanlik fazilatlarini, iqtidorini oshirish yo'lidagi yana bir samaradorli ishlar sirasiga kiradi.

2.2 Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi usullari va ish shakllari

Maktabgacha ta'lim muassasasining maktab bilan hamkorligi va tuziladigan shartnoma ish rejasi muhim jarayon hisoblanadi. Yilning avgust oyida maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi o'zi hamkorlik qilayotgan maktab direktori bilan hamkorlik ish rejasini tasdiqlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabning hamkorlik ish rejasida quyidagilar bo'ladi.

Avvalo avgust oyi boshida maktabgacha ta'lim muassasining psixologi, tayyorlov guruhi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maktabgacha ta'lim muassasasi tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan ish rejasini tuzadilar va uni tasdiqlaydilar.

Bunda albatta tayyorlov guruhi bolalariga maktab ta'limi haqida ma'lumotlar beriladi va ularda maktab haqida tasavvur va ko'nikmalar paydo qilish ishlari olib boriladi.

Yilning sentabr oylarida mustaqilligimiz yubileylari, bilimlar kuni tadbirlarida bolalarning chiqishlari bilan ishtirok etish va bu tadbirlarga hamkorlik qilinayotgan maktab direktori, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham taklif etish va ularning ishtirokini ta'minlash rejalashtiriladi.

Yil davomida o'tkaziladigan tadbirlardan yana biri bu – "1-oktabr o'qituvchi va murabbiylar kuni" ga bag'ishlab o'tkaziladigan bayram ertaligidir. Bu bayramda ham albatta maktab o'qituvchilari taklif etiladi. Bu tadbir orqali o'qituvchi va murabbiylarimizga bag'ishlangan she'rlarni yod olishadi. Bu she'rlarni yod olish orqali bevosita maktabda ularga endi tarbiyachi emas

o'qituvchi ustozlarimiz ta'lim berishlarini va ularni hurmat qilish, qanchalik e'zozlash kerakligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tayyorlov guruhlarida tayyorlanayotgan bolalar maktab ta'limiga o'tkazilishdan oldin albatta maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi tekshiruvdan o'tkaziladi. Tayyorlov guruhidagi har bir bola uchun alohida daftarcha bo'lishi va unda bolaning tekshiruvdan o'tgan natijalari va maktab ta'limiga qay darjada tayyor ekanligi qayd qilib boriladi. Bunday tekshiruv natijalari albatta maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi va boshlang'ich sinf o'qituvchisi, maktab psixologi bilan o'zaro tahlil qilib chiqiladi. Albatta bu ishlar yil davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Tayyorlov guruhidagi bolalar maktab ta'limiga o'tgach, u yerdagi sharoitga ko'nikish jarayonlarini muntazam ravishda nazorat qilib borish maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab psixologlari tomonidan amalgam oshiriladi. Albatta, bu jarayon bolalarni maktab ta'limiga sharoitlariga ko'nikishida alohida o'rinni egallaydi.

**...-SONLI MAKTABGACHA MA'LIM MUASSASASINING ...-SONLI
MAKTAB BILAN HAMKORLIKDAGI ISH REJASI.**

“TASDIQLAYMAN”

...sonli maktab direktori

_____

“ ___ ” avgust

“TASDIQLAYMAN”

...-sonli MTM mudirasi

_____

“ ___ ” avgust

№	Bajariladigan ishlar	Vahti	Mas'ul	Ijro natijasi
1	Maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan ish rejasini tuzish va tasdiqlash	Avgust	Metodist, Tarbiyachi, Boshlang'ich sinf o'qituvchilari	
2	Mustaqilligimizning yubileyi, bilimlar kuni tadbirlarida bolalarning chiqishlari bilan ishtirok etish.	Sentabr	Psixolog, Maktab direktori	
3	Maktab va MTM pedagoglarining hamkorligini mustahkamlash maqsadida pedagogik kengashlar, ota-onalar majlislarida o'zaro ishtiroklarini taminlash	Yil davomida	Psixolog Maktab direktori	
4	Maktabga chiqarilgan bolalarni maktab sharoitida ko'nikish	Yil davomida	MTM psixologi, Maktab psixologi	

	jarayonlarini muntazam nazorat qilib boorish.			
5	“1-oktabr o’qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag’ishlab o’tkaziladigan bayram ertaligiga maktab o’qituvchilarini taklif etish	Oktabr	Metodist, Tarbiyachi, Boshlang’ich sinf o’qituvchilari.	

XULOSA.

Xulosa o’rnida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytib o’tish joizki ta’lim tizimi va unda kechayotgan jarayonlar sog’lomshtirish, shaxsni rivojlantirish eng asosiysi tarbiyaga berilayotgan e’tibor barchamizni qiziqtirishi va nazarimizdan chetda qolmasligi darkor. Chunki, bu ishlarning barchasi bevosita sog’lom avlodni shakllantirishga qaratilgan.

Darhaqiqat, yosh avlod unib o’sayotgan ekan ularga albatta biz o’z e’tiborimizni qaratmog’imiz ularning ta’lim-tarbiya ishlariga alohida yondashmog’imiz shart va bu bizning yosh avlod va xalqimiz oldidagi burchimizdir. Bolalarimizni davlatimiz kelajagini o’ylovchi, o’z vatani uchun jon kuyduruvchi vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz kerak.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi hamkorlikning samaradorligini oshirish va bu jarayonga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor berilayotgani tahsinga sazovordir. Maktabgacha ta’lim muassasasi va maktabning o’zaro hamkorligi asosida bolalarga ta’lim berish o’z samarasini ko’rsatadi albatta. Chunki, maktabgacha ta’lim muassasasidagi tayyorlov guruhi bolalariga maktab ta’limiga o’tishdan oldin ko’nikmalar, u yerdagi sharoitga bolani asta-sekin tayyorlab borish va maktab haqidagi ijobiy fikrlarni bola tasavvurida shakllantirish bevosita maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari zimmasiga yuklatilgan. Bunda maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari albatta maktab bilan hamkorlikda ish olib boradilar.

Albatta, maktab bilan hamkorlikda yuqorida aytib o’tilganidek tadbirlar, kechalar, bolalrning bayramlardagi chiqishlari bilan qatnashish va bu jarayonda birgalikda ishtirok etish jarayonlari, ota-onalar majlislarida o’zaro ishtirok etish,

pedagoglar o'rtasidagi fikr almashinuvi va suhbat jarayonlarini tashkillashtirish ishning samaradorligini oshiradi va bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsata olishga yordam beradi.

Avvalo, maktabgacha ta'lim muassasasidagi pedagogning malakali va tajribali bo'lishini ta'minlash darkor. Chunki, bolaning fikrlashi, tasavvuriga tarbiyachi bevosita ta'sir ko'rsata olishi kerak. Shundagina bola ongida ezgu fikrlar, bilimga bo'lgan qiziqish, iqtidorini namoyish qila olishi va o'z qiziqishlarini qo'rqmasdan bildira olishi mumkin.

Shu o'rinda ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tizimi haqida to'xtalsak. Maktabgacha ta'lim muassasasi hammamizga ma'lumki ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Bu yerda ta'limdan tashqari bevosita tarbiya jarayoni ham olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayoni qanchalik sifatli va yuqori darajali bo'lsa yoshlarimiz ta'limning keyingi bosqichlarida ham qiynalmasdan bilimlarni o'zlashtiradilar. Shunday ekan ta'lim jarayoniga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e'tiborni e'zozlashimiz va unadan to'g'ri samarali foydalanishimiz lozim. Buning asosida albatta yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishimiz va vatanimizga kerakli inson qilib ulg'aytirmog'imiz lozim. Muhtaram yurtboshimiz tabiri bilan aytganda **“Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqli va albatta baxtli bo'lishlari shart”**

Yurtboshimiz tomonidan o'tgan 2014-yilni “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilinganligi buning yaqqol dalili desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Yil davomida respublikamiz viloyat, shahar va tumanlardagi ta'lim muassasalariga e'tibor kuchaytirildi va muassasalardagi sharoitlar, ta'lim jarayoni ko'zga ko'rinarli darajada o'zgartirildi. Bu ham albatta, yosh avlod rivojlanishiga qaratilgan yana bir e'tibordir. Bunday zamonaviy shart-sharoitlardan to'g'ri foydalanish biz yoshlarning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - T.:O'zbekiston. 1997
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” -T.:O'zbekiston. 1997
3. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari”-T.:Kvinta print. 2012
4. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch”. _ T.: Ma'naviyat 2008
5. Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013
6. N.M.Kayumova “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti T.: 2013.
7. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo.2012

1. www.ta'lim.uz

2. www.edu.uz.

3. www.pedagogika.uz.

4. www.ziyonet.uz.

5. www.Google.uz

